

## Korruptsiya – taraqqiyotga tahdid

Jiddiy islohotlar davriga qadam qo'ygan O'zbekiston uchun korruptsiyaga qarshi kurash asosiy ahamiyatga ega vazifalardan biriga aylandi. Chunki korruptsiya nafaqat demokratiyaga tahdid, umuman har qanday taraqqiyotga tahdid ekani ma'lum. "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari O.Ro'zibaev tashabbusi bilan 2-TTJda tashkil etilgan "Korruptsiya – taraqqiyotga tahdid" mavzuida o'tkazilgan davra suhbatida ham shu haqda gap bordi. Davra suhbatida GIM fakulteti dekani dotsent B.Norov, IIB XPB profilaktik inspektorlari kapitan Abdullaev Yusuf va katta leytenant Temur Egamberdiev ishtirok etib, korruptsiyaga nisbatan muhosasizlik munosabatini shakllantirish, jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, talaba-yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali korruptsiyaning barcha shakllariga nisbatan muhosasiz munosabatda bo'lish kerakligi to'g'risida aytib o'tdi. Tashrif buyurgan mehmonlar tomonidan talaba – yoshlarni qiziqtirgan savollariga to'liq javoblar berilib, tushuntirish ishlari olib borildi.



**TIQXMMI matbuot xizmati**